FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 378.14:373.3

Bayzakova Malika Abdukayumovna,
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA KASBIY-METODIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari, ustuvor yo‘nalishlari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Xususan, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash tamoyillari hamda ularda belgilangan kognitiv faoliyat turlarining bo‘lajak o‘qituvchilar metodik tayyorgarligiga ta’siri tahlil qilingan. O‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash, matnni tahlil qilish, dalillarni izohlash, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan. Shuningdek, pedagogik ta’lim jarayonida baholash savodxonligini rivojlantirish, topshiriqlarni kognitiv murakkablik darajasi bo‘yicha loyihalash, o‘quvchilar xatolarini diagnostika qilish va baholash natijalaridan keyingi pedagogik faoliyatni takomillashtirishda foydalanish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy-metodik tayyorgarlik, xalqaro baholash, PIRLS, TIMSS, baholash savodxonligi, pedagogik kompetensiya, kognitiv faoliyat, formativ baholash.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНИВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы, приоритетные направления и практические механизмы подготовки будущих учителей начальных классов к профессионально-методической деятельности на основе международных критериев оценивания. Анализируются содержание международных программ оценки PIRLS и TIMSS, их основные принципы и влияние оцениваемых когнитивных процессов на методическую подготовку будущих педагогов. Обосновывается значимость профессионально-методической компетентности учителя в развитии у учащихся не только предметных знаний, но и умений применять их в новых ситуациях, анализировать тексты, интерпретировать доказательства, формулировать логические выводы и решать проблемные задачи. Особое внимание уделяется развитию оценочной грамотности будущих учителей, проектированию заданий с учетом уровней когнитивной сложности, диагностике учебных ошибок и использованию результатов оценивания для совершенствования образовательного процесса. Предложены практические механизмы интеграции международных критериев оценивания в систему профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, будущий учитель, профессионально-методическая подготовка, международное оценивание, PIRLS, TIMSS, оценочная грамотность, педагогическая компетентность, когнитивная деятельность, формирующее оценивание.

PREPARING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL ACTIVITIES BASED ON INTERNATIONAL ASSESSMENT CRITERIA

Abstract. This article examines the theoretical foundations, priority areas, and practical mechanisms for preparing future primary school teachers for professional and methodological activities based on international assessment criteria. It analyzes the content and assessment principles of the PIRLS and TIMSS international assessment programmes, as well as the influence of their cognitive dimensions on the methodological preparation of prospective teachers. The article substantiates the importance of teachers' professional and methodological competence in developing students' abilities not only to acquire subject knowledge but also to apply it in new situations, analyze texts, interpret evidence, draw logical conclusions, and solve problems. Particular attention is paid to developing assessment literacy among future teachers, designing tasks according to different levels of cognitive complexity, diagnosing students' learning difficulties, and using assessment results to improve teaching practices. Practical mechanisms for integrating international assessment criteria into the professional preparation of future primary school teachers are also proposed.

Keywords: primary education, prospective teacher, professional and methodological training, international assessment, PIRLS, TIMSS, assessment literacy, pedagogical competence, cognitive processes, formative assessment.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining sifati mamlakatning intellektual salohiyati, iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli dunyo mamlakatlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, ta’lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining keyingi ta’lim muvaffaqiyatini belgilaydigan eng muhim davrlardan biridir. Aynan shu bosqichda bolada o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash, matematik munosabatlarni anglash, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, dalillash va xulosa chiqarish kabi tayanch ko‘nikmalar shakllanadi. Mazkur ko‘nikmalarning qay darajada rivojlanishi, avvalo, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil eta olishiga bog‘liq.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqat fan mazmunini bilish yoki an’anaviy dars metodlarini egallash bilan chegaralanmaydi. U o‘quvchining bilimni qanday o‘zlashtirayotgani, uni turli vaziyatlarda qay dara-

jada qo‘llay olishi, qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotgani va ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali usullarini aniqlay olishi zarur. Demak, pedagogning kasbiy-metodik tayyorgarligida o‘qitish, baholash, tahlil qilish va ta’lim jarayonini takomillashtirish faoliyatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi lozim.

PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari boshlang‘ich ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. PIRLS boshlang‘ich ta’limning muhim bosqichida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, TIMSS esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgan. Ushbu dasturlarda o‘quvchilarning faqat egallagan bilimlari emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil qilish, muammolarni hal etish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatlari ham baholanadi.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti qariyb 60 ta mamlakat va hududdan olingan o‘quvchi, ota-ona, o‘qituvchi hamda maktab ma’lumotlarini qamrab olgan keng ko‘lamli tadqiqot hisoblanadi [1]. Bu esa o‘qish savodxonligini rivojlantirishda faqat o‘quvchining individual qobiliyatlari emas, balki oilaviy muhit, maktab sharoiti va o‘qitish metodikasining ham ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlash pedagogik ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda xalqaro baholash dasturlarining mazmunini o‘rgatish bilan bir qatorda, ularning metodologik asoslarini amaliy dars jarayoniga tatbiq etish kompetensiyalarini shakllantirish muhimdir.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida tayyorlash masalasi xalqaro tadqiqotlarda o‘qituvchining professional bilimi, baholash savodxonligi, formativ baholash va ta’lim natijalarini tahlil qilish kabi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan.

Mullis va hammualliflar tomonidan tayyorlangan PIRLS 2021 xalqaro natijalari bo‘yicha hisobotda o‘qish savodxonligining mazmuni, uni baholash mezonlari hamda o‘quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida namoyon qiladigan kognitiv faoliyatlari yoritilgan [1]. Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning matndan aniq axborotni topish, bevosita xulosa chiqarish, ma’lumotlarni integratsiyalash, g‘oyalarni talqin qilish va matn mazmuniga baho berish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Von Davier va hammualliflarning TIMSS 2023 xalqaro natijalari bo‘yicha hisobotida matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari mazmuniy sohalar bilan bir qatorda kognitiv faoliyat turlari asosida ham tahlil qilingan [2]. Unda bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish jarayonlari o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlashda muhim mezon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda topshiriqlarni faqat mavzu mazmuniga qarab emas,

balki ular talab qiladigan fikrlash jarayoniga koʻra ham loyihalash zarurligini koʻrsatadi.

Pastore tomonidan amalga oshirilgan tizimli tahlilda oʻqituvchining baholash savodxonligi (teacher assessment literacy) baholashni rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarni talqin qilish va ulardan ta’lim sifatini oshirishda foydalanish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalar majmui sifatida izohlangan [3]. Tadqiqotda oʻqituvchilarning baholashga oid nazariy bilimlarini real sinf sharoitida qoʻllashda uchraydigan qiyinchiliklar ham qayd etilgan. Bu holat pedagogik oliy ta’limda baholash faoliyatini alohida nazariy mavzu sifatida emas, balki barcha fanlarni oʻqitish metodikasining tarkibiy qismi sifatida oʻrgatish zarurligini anglatadi.

Yan va Pastore tomonidan ishlab chiqilgan formativ baholash savodxonligini oʻlchashga qaratilgan tadqiqotda mazkur kompetensiyaning konseptual, amaliy va ijtimoiy-emotsional komponentlardan tashkil topishi asoslangan [4]. Mualliflarning yondashuvi baholash jarayonida nafaqat bilim va koʻnikmalarni oʻlchash, balki oʻquvchining individual xususiyatlari, motivatsiyasi va psixologik holatini ham hisobga olish muhimligini koʻrsatadi.

Li, Yan, Chan, Zhan va Guo tomonidan boshlangʻich sinf oʻqituvchilari ishtirokida olib borilgan tadqiqotda maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlarining formativ baholash savodxonligini takomillashtirishdagi ahamiyati oʻrganilgan [5]. Tadqiqot natijalari oʻqituvchilarning baholash kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy mashgʻulotlar, kasbiy hamkorlik va muntazam refleksiyaning muhimligini koʻrsatadi.

OECD tomonidan nashr etilgan OECD Digital Education Outlook 2023 hisobotida raqamli ta’lim va raqamli baholash vositalarining oʻquv natijalarini aniqlash, ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlarni yigʻish hamda ularni tahlil qilish imkoniyatlari yoritilgan [6]. Ushbu yondashuv boʻlajak oʻqituvchilarning raqamli baholash vositalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish zarurligini koʻrsatadi.

König va hammualliflarning boshlangʻich savodxonlikni oʻqitish boʻyicha 386 nafar boʻlajak oʻqituvchi ishtirokida oʻtkazgan tadqiqotida oʻqituvchining professional bilimi fan boʻyicha bilim, pedagogik mazmun bilimi va umumiy pedagogik bilim kabi oʻzaro bogʻliq komponentlardan tashkil topishi asoslangan [7]. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro baholash mezonlarini oʻzlashtirishda ham fan mazmunini chuqur bilish, uni oʻquvchiga yetkazish metodikasini egallash va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatining birgalikda rivojlanishi zarurligini anglatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni koʻrsatadiki, xalqaro baholash mezonlari asosida pedagoglarni tayyorlash masalasi bir nechta oʻzaro bogʻliq yoʻnalishlarni qamrab oladi. Biroq mazkur yondashuvlarni pedagogika oliy ta’limi sharoitida yagona amaliy-metodik tizimga birlashtirish, xususan, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida topshiriq yaratish, baholash natijalarini diagnostika qilish va ular asosida pedagogik qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllantirish alohida metodik yondashuvni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlash masalasi nazariy-tahliliy va metodik yondashuvlar asosida o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, xalqaro baholash dasturlarining metodologik asoslarini o‘rganish hamda metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, topshiriqlar tuzilishi va kognitiv talablarini o‘zaro qiyoslash orqali ularni boshlang‘ich ta’lim metodikasiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llay olishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv metodik kompetensiyalarni amaliy topshiriqlar, pedagogik vaziyatlar va mustaqil faoliyat orqali shakllantirishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv esa o‘qitish, baholash, tahlil va korreksion faoliyatni yagona pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilandi:

Xalqaro baholash dasturlari mazmunini o‘zlashtirish. PIRLS va TIMSS dasturlarining maqsadi, mazmuni, baholash mezonlari va kognitiv talablarini anglash.

Topshiriqlarni loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish. Turli murakkablik darajasidagi savol va topshiriqlarni ishlab chiqish, ularning yosh xususiyatlariga mosligini ta’minlash.

Baholash savodxonligini shakllantirish. Baholash mezonlarini ishlab chiqish, o‘quvchilar javoblarini tahlil qilish va xatolarni diagnostika qilish.

Raqamli baholash vositalaridan foydalanish. Raqamli platformalar yordamida topshiriqlar yaratish, natijalarni umumlashtirish va individual o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

Refleksiv-metodik faoliyatni rivojlantirish. Baholash natijalariga asoslangan holda dars mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda quyidagi faoliyat ketma-ketligini qo‘llash maqsadga muvofiq deb topildi:

O‘qitishni loyihalash → topshiriq yaratish → baholash → natijalarni tahlil qilish → metodik qaror qabul qilish → ta’lim jarayonini takomillashtirish.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasidagi nazariy va metodik tahlillar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida tayyorlashda bir qator muhim jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, xalqaro baholash dasturlarining mazmunini o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchidan topshiriqlarni nafaqat tashqi shakliga, balki ularning kognitiv mazmuniga ko‘ra tahlil qilishni talab etadi. Masalan, PIRLS dasturida o‘qish savodxonligi matnni shunchaki ravon o‘qish yoki undagi ma’lumotni takrorlashdan ancha keng tushuniladi. O‘quvchi matndan aniq axborotni topishi, mazmun asosida bevosita xulosa chiqarishi, turli qismlardagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lashi, g‘oya va dalillarni izohlashi hamda matn mazmuni va shakliga baho bera olishi zarur [1].

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘qish darslarida faqat “Matnda nima deyilgan?” yoki “Qahramonning ismi nima?” kabi savollar bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, “Nega qahramon bunday yo‘l tutdi?”, “Muallifning fikrini qaysi jumla tasdiqlaydi?”, “Matnning ikki qismi o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?”, “Siz qahramonning qaroriga qo‘shilasizmi? Fikringizni dalillar bilan asoslang” kabi savollarni ham ishlab chiqishi lozim.

Bunda savolning murakkabligi uning hajmi yoki uzunligi bilan emas, balki uni bajarish uchun talab qilinadigan fikrlash jarayoni bilan belgilanadi. Bir xil matn asosida oddiy axborotni topishga qaratilgan topshiriq ham, tahliliy va tanqidiy fikrlashni talab qiladigan murakkab topshiriq ham tuzish mumkin. Demak, bo‘lajak o‘qituvchi topshiriqning kognitiv mohiyatini anglay olishi va uni maqsadga muvofiq loyihalashtirishi zarur.

Ikkinchidan, TIMSS dasturining mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. TIMSS 2023da topshiriqlar mazmuniy yo‘nalishlar bilan bir qatorda bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish kabi kognitiv jarayonlarni ham qamrab oladi [2].

Boshlang‘ich sinf matematika darsida bu farq yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchidan ko‘paytirish amalini bajarishni so‘rash bir darajadagi vazifa bo‘lsa, real hayotiy vaziyat asosida qaysi matematik amalni tanlash kerakligini aniqlash boshqa darajadagi fikrlashni talab qiladi. Xuddi shuningdek, tayyor natijani hisoblash bilan masalaning yechim usulini izohlash va o‘z fikrini asoslash o‘rtasida ham metodik farq mavjud.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligida topshiriqlarni kognitiv darajalar bo‘yicha tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Talabaga tayyor topshiriq berilib, undan faqat javobni topish emas, balki quyidagi savollarga javob berish talab etilishi mumkin:

Ushbu topshiriq o‘quvchidan qanday fikrlash faoliyatini talab qiladi?

Topshiriqni murakkablashtirish uchun uning qaysi jihatini o‘zgartirish mumkin?

Noto‘g‘ri javob o‘quvchining qaysi bilim yoki ko‘nikmasi yetarli shakllanmaganini ko‘rsatishi mumkin?

Ushbu topshiriqni baholash uchun qanday mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq?

Bunday faoliyat talabada metodik tafakkur, pedagogik tahlil va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, kasbiy-metodik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi o‘qituvchining baholash savodxonligi hisoblanadi. Pastore tomonidan amalga oshirilgan tizimli tahlilda baholash savodxonligi o‘qituvchining baholashni rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarni talqin qilish va ulardan ta’limni takomillashtirishda foydalanishiga xizmat qiladigan bilim hamda ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etiladi [3].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, pedagogika oliy ta’limida baholashga alohida fan sifatida emas, balki butun metodik tayyorgarlikning tarkibiy elementi sifatida qarash zarur. Talaba ona tili, o‘qish, matematika yoki tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini o‘rganish bilan bir qatorda, shu fan doirasida o‘quv natijalarini qanday o‘lchash, topshiriqning maqsadga muvofiqligini qanday aniqlash va olingan javoblarni qanday tahlil qilishni ham egallashi lozim.

Yan va Pastore tadqiqotlarida formativ baholash savodxonligi konseptual, amaliy va ijtimoiy-emotsional komponentlarni qamrab olishi ko‘rsatilgan [4]. Bu boshlang‘ich ta’lim uchun ayniqsa muhimdir. Chunki yosh o‘quvchiga berilgan baho uning o‘qishga munosabati, o‘z imkoniyatlariga ishonchi va keyingi ta’lim faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi xatoni faqat noto‘g‘ri javob sifatida emas, balki o‘quvchining bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beruvchi diagnostik axborot sifatida qabul qilishi kerak. Masalan, matematika masalasida bir nechta o‘quvchi bir xil noto‘g‘ri javobni bergan bo‘lsa, o‘qituvchi faqat ballni kamaytirish bilan cheklanmasligi lozim. U xatoning kelib chiqish sababini aniqlashi kerak: masala sharti noto‘g‘ri tushunilganmi, matematik amal noto‘g‘ri tanlanganmi, hisoblash jarayonida xatoga yo‘l qo‘yilganmi yoki asosiy matematik tushuncha yetarli shakllanmaganmi?

Ana shu tahlil asosida keyingi darsning mazmuni, metodlari va individual yondashuv shakllari belgilanadi.

To‘rtinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash mezonlari asosida tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlar va kasbiy rivojlanish faoliyatining ahamiyati katta. Li va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida formativ baholash savodxonligini oshirishdagi roli ko‘rsatilgan [5].

Ushbu natijalardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalaridagi amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi metodik topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi:

talabalarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos qisqa matn berish va PIRLS mezonlariga muvofiq turli kognitiv darajadagi savollar ishlab chiqishni topshirish;

ishlab chiqilgan savollarni o‘zaro almashtirish va ularning aniqligi, murakkabligi, yoshga mosligi hamda baholash mezonlarini tahlil qilish;

TIMSS yo‘nalishidagi matematik topshiriqlarni bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish darajalariga ajratish;

o‘quvchilarning taxminiy javoblari asosida xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

mikroo‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan topshiriqlarni sinovdan o‘tkazish va natijalarni refleksiv tahlil qilish.

Bunday mashg‘ulotlar talabalarni tayyor testlarni yechishga emas, balki mustaqil ravishda metodik materiallar yaratishga, ularni baholashga va takomillashtirishga yo‘naltiradi.

Beshinchidan, xalqaro baholash mezonlari asosida tayyorlashda fan mazmunini bilish va pedagogik mazmun bilimining uyg‘unligi muhim hisoblanadi. König va hammualliflarning 386 nafar bo‘lajak o‘qituvchi ishtirokidagi tadqiqotida o‘qituvchining professional bilimi fan bo‘yicha bilim, pedagogik mazmun bilimi va umumiy pedagogik bilim kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida tahlil qilingan [7].

Masalan, PIRLS mezonlariga mos savol tuzish uchun o‘qituvchi faqat savol tuzish texnikasini bilishi yetarli emas. U matnning yoshga mosligi, leksik murakkabligi, mazmuniy yaxlitligi, yashirin ma’nolari va o‘quvchidan qanday xulosa chiqarishni talab qilishini ham tushunishi kerak. Matematik topshiriqlarda esa javob variantlari tasodifiy tanlanmasdan, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan real xatolar va noto‘g‘ri tasavvurlarni hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. OECDning 2023-yilgi Digital Education Outlook hisobotida raqamli ta’lim vositalari o‘quv natijalarini baholash bilan birga, ta’lim jarayoni haqida tezkor va keng qamrovli ma’lumot olish imkoniyatlarini ham kengaytirishi qayd etilgan [6].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli baholash vositalaridan faqat test yaratish yoki natijalarni avtomatik hisoblash maqsadida foydalanmasligi kerak. Raqamli platformalar o‘quvchilar javoblarini taqqoslash, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash, individual o‘zlashtirish darajasini kuzatish va keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirishga xizmat qilishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xalqaro baholash mezonlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda topshiriq yaratish, baholash, diagnostika, raqamli tahlil va refleksiv faoliyatni o‘zaro integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro baholash dasturlarining ta’lim tizimiga ta’siri faqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash

bilan cheklanmaydi. Ular ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, baholash yondashuvlari va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga ham yangi talablarni belgilaydi.

PIRLS va TIMSS dasturlarining muhim jihati shundaki, ularda o‘quvchilarning bilimlarni qayta aytib berish qobiliyati bilan bir qatorda, ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlari ham baholanadi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan dars jarayonida reproduktiv topshiriqlar bilan bir qatorda muammoli, izlanishga undovchi va tahliliy topshiriqlardan ham foydalanishni talab qiladi.

Shu o‘rinda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni tayyor testlarni ko‘paytirish yoki o‘quvchilarga murakkab savollarni muntazam yechdirish bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Bunday yondashuv baholashning tashqi shaklini o‘zlashtirishga yordam berishi mumkin, biroq uning metodik mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Muhim vazifa — xalqaro baholash mezonlarini kundalik o‘quv jarayoniga moslashtirish va ulardan o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishdir.

Masalan, o‘quvchilar matndan aniq ma’lumotni topishda yaxshi natija ko‘rsatib, turli qismlardagi axborotni birlashtirish va xulosa chiqarishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi o‘qish tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar bilan cheklanmasligi kerak. Bunday vaziyatda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, matn qismlarini o‘zaro bog‘lash, dalillarga tayangan holda fikr bildirish va muallif pozitsiyasini anglashga qaratilgan topshiriqlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Xuddi shuningdek, matematika fanida o‘quvchilar oddiy hisoblash mashqlarini muvaffaqiyatli bajargani holda, nostandart vaziyatlarga oid masalalarni yechishda qiynalsa, qo‘shimcha hisoblash mashqlarini ko‘paytirish muammoni to‘liq hal qilmaydi. Bunday holatda o‘quvchilarning matematik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, masala shartini tahlil qilish, yechim strategiyasini tanlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Shu sababli xalqaro baholash mezonlarini o‘qituvchi uchun faqat imtihon mezonlari emas, balki o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qiladigan diagnostik metodik vosita sifatida talqin qilish lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning bunday kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik amaliyot, mikroo‘qitish, mustaqil metodik loyiha va refleksiv tahlil muhim o‘rin tutadi. Xususan, oliy ta’lim jarayonida “o‘qitish – baholash – tahlil – tuzatish” siklini muntazam qo‘llash samarali metodik mexanizm bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur siklda talaba dastlab dars yoki uning alohida qismini loyihalashtiradi, keyin belgilangan o‘quv maqsadlariga mos baholash topshiriqlarini ishlab chiqadi. Keyingi bosqichda topshiriqlar mikroo‘qitish yoki pedagogik amaliyot davomida sinovdan o‘tkaziladi. Olingan javoblar tahlil qilinib, o‘quvchilarning qiyinchiliklari va xatolari aniqlanadi. Yakuniy bosqichda talaba dars loyihasini qayta ko‘rib chiqadi va zarur metodik o‘zgartirishlarni asoslaydi.

Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchida mustaqil metodik qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini baholash, o‘quv natijalarini tahlil qilish va ta’lim jarayonini takomillashtirish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Demak, xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirish pedagogik ta’lim mazmunini yangilash, fanlarni o‘qitish metodikasini baholash faoliyati bilan integratsiyalash va talabalarni amaliy pedagogik vaziyatlarga tayyorlash orqali amalga oshirilishi lozim.

XULOSA

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash mezonlari asosida kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilarning reproduktiv bilimlarini aniqlash bilan cheklanmay, ularning bilimlarni anglash, amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish, izohlash va asoslangan xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham baholashi bilan boshlang‘ich ta’lim metodikasiga yangi talablarni qo‘ymoqda.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy va metodik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi xalqaro baholash dasturlari to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki ularning mazmuni va baholash mezonlarini amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash kompetensiyasini ham qamrab olishi zarur.

2. PIRLS va TIMSS dasturlarining kognitiv talablari asosida topshiriqlarni loyihalash bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llashi va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Baholash savodxonligini shakllantirish pedagogik ta’limning barcha metodik fanlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi lozim. Bunda talabalarga baholash mezonlarini ishlab chiqish, o‘quvchilar javoblarini tahlil qilish, xatolarni diagnostika qilish va natijalar asosida metodik qarorlar qabul qilish o‘rgatilishi muhimdir.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar, mikroo‘qitish, mustaqil topshiriq yaratish, pedagogik amaliyot va refleksiv tahlil usullaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Raqamli baholash vositalaridan foydalanish o‘quv natijalarini tezkor tahlil qilish, individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

6. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “o‘qitish – baholash – tahlil – tuzatish” metodik siklini tizimli joriy etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil metodik fikrlashi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro baholash mezonlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning asosiy maqsadi ularni xalqaro test topshiriqlarini yechishga o‘rgatish emas, balki o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantira oladigan, ta’lim natijalarini xolis baholaydigan, o‘quv qiyinchiliklarini aniqlaydigan va pedagogik faoliyatini tahlil asosida takomillashtiradigan raqobatbardosh pedagog sifatida shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2023.
2. von Davier M., Kennedy A.M., Reynolds K.A., Fishbein B., Khorramdel L., Aldrich C.E.A., Bookbinder A., Ummugal B., Yin L. TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2024.
3. Pastore S. Teacher Assessment Literacy: A Systematic Review // Frontiers in Education. – 2023. – Vol. 8. – Article 1217167. DOI: 10.3389/feduc.2023.1217167.
4. Yan Z., Pastore S. Are Teachers Literate in Formative Assessment? The Development and Validation of the Teacher Formative Assessment Literacy Scale // Studies in Educational Evaluation. – 2022. – Vol. 74. – Article 101183. DOI: 10.1016/j.stueduc.2022.101183.
5. Li Z., Yan Z., Chan K.K.Y., Zhan Y., Guo W.Y. The Role of a Professional Development Program in Improving Primary Teachers' Formative Assessment Literacy // Teacher Development. – 2023. – Vol. 27, No. 4. – P. 447–467. DOI: 10.1080/13664530.2023.2223595.
6. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en.
7. König J., Hanke P., Glutsch N., Jäger-Biela D., Pohl T., Becker-Mrotzek M., Schabmann A., Waschewski T. Teachers' Professional Knowledge for Teaching Early Literacy: Conceptualization, Measurement, and Validation // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. – 2022. – Vol. 34. – P. 483–507. DOI: 10.1007/s11092-022-09393-z.